Mintaqa korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion marketingning o'rni va mohiyati.....	1146
Axmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tokomillashtirish yo'llari.....	1150
Samandarova Dilfuza Mansurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari: mavjud muammolar va yechimlar.....	1157
Fatilloev Farrux Farhod o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlili.....	1162
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo'llari ("Agrobank" ATB misolida).....	1171
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1176
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	



O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH VA "UGLEROD NEYTRALLIGIGA ERISHISH" STRATEGIYALARINING AHAMIYATI



Pulatov Dilshod Haqberdiyevich

I.f.d, professor, O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi
Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti
direktori birinchi o'rinbosari




Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich

Davlat boshqaruvi akademiyasi mustaqil
izlanuvchisi



Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li

Bank-moliya akademiyasi magestranti (MBA)



Bazarov Shodi Abdirahmonovich

Bank-moliya akademiyasi magestranti(MBA)



Annotatsiya: Tadqiqotda “Yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi va “Uglerod neytralligiga erishish strategiyasi”ning muhimligi, ushbu strategiyalarni amalga oshirayotgan YETTB va xorij mamlakatlari tajribasiga asosan O'zbekiston uchun takliflar tayyorlanadi. Berilgan takliflar amalga oshirilgan taqdirda qancha iqtisodiy samaradorlikka erishilishi mumkinligi nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: o'tish strategiyasi, iqtisodiy samaradorlik, YETTB, CO₂.

Abstract: In the study, proposals for Uzbekistan are prepared based on the importance of the “Strategy of transition to a green economy” and “Strategy to achieve carbon neutrality”, and the experience of EBRD and foreign countries implementing these strategies. It is theoretically analyzed how much economic efficiency can be achieved if the given proposals are implemented.

Key words: transition strategy, economic efficiency, EBRD, CO₂.

Аннотация: В исследовании предложения для Узбекистана подготовлены с учетом важности “Стратегии перехода к зеленой экономике” и “Стратегии достижения углеродной нейтральности”, а также опыта ЕБРР и зарубежных стран, реализующих эти стратегии. Теоретически проанализировано, какой экономической эффективности можно достичь при реализации данных предложений.

Ключевые слова: стратегия перехода, экономическая эффективность, ЕБРР, CO₂.

KIRISH

To'rtinchi sanoat inqilobi insoniyatning texnologik innovatsiyalardan ekologik barqarorlik maqsadlarida foydalanishi va “yashil” iqtisodiyotga o'tishi bilan boshlandi. Rivojlanayotgan texnologiyalar sanoatni qayta shakllantirar ekan, “yashil” iqtisodiyotga o'tish nafaqat dolzarb, balki majburiy bo'lib qolmoqda. Qazib olinadigan yoqilg'iga asoslangan energetika tizmlaridan qayta tiklanuvchan energiyaga asoslangan tizimga o'tish jadallashib bormoqda. Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra ^[1], hozirda qayta tiklanuvchan energiyaga kiritiladigan investitsiya qazib olinadigan yoqilg'iga kiritiladigan investitsiyadan 70 foizga ko'p, ya'ni qayta tiklanuvchan energiyaga kiritiladigan har 1,70 AQSH dollari investitsiyasiga qazib olinadigan yoqilg'iga kiritiladigan 1 AQSH dollari to'g'ri keladi. Jahon banking tadqiqotlariga ko'ra ^[2] toza ichimlik uchun sarflangan har 1 AQSH dollari tibbiy xarajatlarni kamaytirish va kapital samaradorlikni oshirish orqali 4 AQSH dollarli miqdorida daromad keltirishi aniqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O'zbekiston–2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi PF-37-son Farmonining bosh maqsadi “O'zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan keng ko'lamli islohotlarni 2024 yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o'zgarishlarga erishish bo'yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish hamda xalq manfaatlariga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish” ekanligi mavzuning dolzarbligini karrasiga oshiradi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish va uglerod neytralligiga erishish strategiyasi iqlim o'zgarishi va atrof-muhit degradatsiyasining dolzarb muammolarini hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar resurslardan barqaror foydalanishni rag'batlantiradi, ifloslanishni kamaytiradi va innovatsiyalarni rag'batlantiradi, shu bilan ekologik barqarorlik va iqtisodiy barqarorlikni oshiradi. Qayta tiklanadigan energiya manbalari va samarali amaliyotlarga ustuvor ahamiyat berib, “yashil” iqtisodiyot nafaqat atrof-muhitga etkazilgan zararni kamaytiradi, balki ish o'rinlari imkoniyatlarini yaratadi va texnologik taraqqiyotni ta'minlaydi. Uglerod neytralligiga erishish global isishni cheklash, iqlim bo'yicha xalqaro majburiyatlarni bajarish va uzoq muddatli iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun juda muhimdir.

Tadqiqotda “Yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi va “Uglerod neytralligiga erishish strategiyasi”ning muhimligi, ushbu strategiyalarni amalga oshirayotgan YETTB va xorij mamlakatlari tajribasiga asosan O'zbekiston uchun takliflar tayyorlanadi. Berilgan takliflar amalga oshirilgan taqdirda qancha iqtisodiy samaradorlikka erishilishi mumkinligi nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlatlarning “yashil” iqtisodiyotga o'tishini jadallashtirishda xalqaro tashabbuslar va xalqaro moliya institutlarining o'rni beqiyos. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB)ning “Yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi shunday tashabbuslardan biri bo'lib, bankning asosiy vazifasi bank faoliyat yuritayotgan hududlarda “yashil” loyihalar va tashabbuslarga yo'naltirilgan investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali barqaror rivojlantirishga ko'maklashish, iqlim o'zgarishiga va atrof-muhit bilan bog'liq boshqa ekologik maqsadlarga erishishni qo'llab-quvvatlashdan iborat.



YETTB o'zi faoliyat yuritayotgan davlatlarda kam uglerodli "yashil" iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'zining qat'iy majburiyatini aks ettirgan holda, 2025-yilga borib "yashil" moliyalashtirish ulushini 50 foiz dan ortiqqa yetkazishni maqsad qilib qo'ygan ^[3]. Bank ta'kidlashicha, ushbu maqsadga erishish bir tomondan vaqt masalasiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan davlatlarning "yashil" tiklanish yondashuvini qo'llash, ichki resurslarni o'z vaqtida taqsimlash va ikki tomonlama donorlar, Yevropa Ittifoqi va YETTBning "yashil" faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi global fondlar bilan mustahkam aloqalarga asoslangan tashqi mablag'larning mavjudligiga bog'liq.

YETTB 2006-yilda Barqaror energiya tashabbusi (BET) orqali 2006–2010-yillarni o'z ichiga olgan energiya samaradorligi va iqlim o'zgarishi loyihalarini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya va moslashuv loyihalarini ko'rib chiqishni boshlagan. Ushbu faoliyat 2015-yilda tasdiqlangan "yashil" iqtisodiyotga o'tish (Green Economic transition yoki GET) yondashuvi bilan kengaytirilgan.


YETTB 2006-yilda BET orqali quyidagi maqsadlarga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi ^[4]:

- barqaror energiyaga kiritiladigan investitsiyalar hajmini ikki baravarga oshirish va umumiy investitsiya qiymatini 5 mlrd yevroga yetkazish;
- BETni asosiy faoliyat doirasida birlashtirish;
- investitsiyalarni ko'paytirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha siyosiy muloqotlarni yo'lga qo'yish;
- 100 mln yevro miqdoridagi grant jamg'armasini safarbar etish maqsadida tashabbusni qo'llab-quvvatlash uchun donorlar bilan yangi hamkorlikni yo'lga qo'yish.

YETTB BET ning 1-fazasida (2006–2008-yillar) erishilgan rekord va tajribaga asoslanib, energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini moliyalashtirishni yanada kengaytirish ustida ish olib bordi va BET ning 2-fazasi (2009–2011) uchun quyidagi maqsadlarni belgiladi:

- BET investitsiya maqsadini 3 mlrd yevrodan 5 mlrd yevrogacha, loyihaning umumiy qiymati 9 mlrd yevrodan 15 mlrd yevrogacha oshirish (loyihaning umumiy qiymati barqaror energiya bilan bog'liq bo'lmagan moliyalashtirishni ham o'z ichiga oladi);
- 100 mln yevro donor moliyalashtirish maqsadi;
- investitsiya granti/imtiyozli moliya maqsadini 250 mln yevroga yetkazish;
- yiliga 25-35 mln tonna CO₂ emissiyasini kamaytirish.

2010-yil dekabr oyining oxiriga kelib, 2006 yilda BET ishga tushirilgandan keyin 353 ta loyiha imzolandi va umumiy qiymati 6,1 mlrd yevro miqdoridagi investitsiya mablag'lariga erishildi. Ushbu loyihalarning umumiy qiymati taxminan 32 mlrd yevroni tashkil etdi va bu investitsiyalar natijasida kutilayotgan uglerod chiqindilarining yillik kamayishi darajasi 37,2 mln tonna CO₂ ni tashkil qilgan. 2010-yilda Latviyada imzolangan loyihalar bilan BET operatsiyalari 2010 yil dekabr holatiga ko'ra 29 ta davlatni qamrab olgan.



1-rasm: YIO' strategiyasining 2016–2019-yillardagi oldiga qo'ygan maqsadlari va natijalari

Manba. "GET approach 2021–2025" hisoboti asosida tuzib chiqildi.

1-rasmda ko'rsatilganidek, YETTB 2016–2019-yillarda o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajardi va hattoki ayrim yillarda o'z oldiga qo'yilgan maqsadlardan ancha yaxshiroq natija qayd etdi. Xususan bank 2017-yilda jami investitsiyalarining 34 % ni YIO' ga yo'naltirilgan loyihalarga sarflashni maqsad qilgan bo'lsa, haqiqatda ushbu yilda 43 % investitsiyalar YIO' doirasida amalga oshirilgan. Bank 2018-yilda ko'zlangan 36 % lik maqsadga erishilgan bo'lsa, 2019-yildan 46 % investitsiyalarni YIO' doirasida amalga oshirgan.

Yevropa Ittifoqi "yashil" taksonomiyasiga ko'ra investitsiyalar oltita (1-iqlim o'zgarishini yumshatish, 2-iqlim o'zgarishiga moslashish, 3-suv va dengiz resurslaridan barqaror foydalanish va muhofaza qilish, 4- resurs-



lardan samarali foydalanish va aylanma iqtisodiyotga o'tish, 5- ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish, 6- biologik xilma-xillik va ekotizimlarni muhofaza qilish, tiklash hamda ularning xizmatlari) maqsad bo'yicha baholanadi. YETTB o'zining umumiy maqsadlariga muvofiq, GET1.0 iqlimni (Yevropa Ittifoqi "yashil" taksonomiyasi 1–2-maqsadlari) moliyalashtirish va boshqa ekologik maqsadlar (Yevropa Ittifoqi "yashil" taksonomiyasi 3-4-5-6-maqsadlari) bilan faoliyatni rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi.

YETTB o'zning yangi YIO' strategiyasida favqulodda iqlim va ekologik inqirozni hal qilish uchun o'z hissasini yanada kengaytirish tashabbusi bilan chiqdi. Bankning yangi strategiyasi "yashil" moliyalashtirishni amalga oshirish bo'yicha mustahkam tajribaga asoslangan bo'lib, 2021-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davr uchun "yashil" iqtisodiyotga o'tishning (Bank bu davr strategiyasini GET2.1 deb nomlashni boshlagan) keng qamrovli va o'z faoliyat yuritayotgan mamlakatlarning iqlim o'zgarishi va atrof-muhit muammolariga hamohang tarzda moslashishiga asoslangan. YETTB yashil, past uglerodli va barqaror iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirishni qo'llab-quvvatlash va amalga oshirish maqsadida quyidagilarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan:

- o'z faoliyatini iqlim bo'yicha xalqaro kelishuvlarga jumladan, Parij kelishuvi tamoyillariga muvofiqlash-tiradi;
- uzoq muddatli past uglerodli strategiyalarni ishlab chiqish va moliyaviy tizimlarni yashillashtirish bo'yicha bankning siyosiy ishtirokini kuchaytiradi;
- yashil innovatsion raqamli yechimlar, aylanma iqtisodiyot, tabiiy kapital va "yashil" qiymat zanjirini moliyalashtirish kabi atrof-muhit va iqlim ta'sirini yumshatish va moslashishning muayyan tematik soha-lariga innovatsiyalar kiritish orqali investitsiyalarni kengaytiradi.

TADQIQOT BO'SHLIG'I

Tadqiqot savollari:

1. O'zbekiston Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YETTB) "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategi-yasidan nimalarni saboq sifatida olishi kerak?
2. 2050–2060-yilgacha O'zbekiston Respublikasida uglerod neytralligiga erishish strategiyasini tuzishda nimalarga e'tibor qaratish kerak?

TADQIQOT METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tuzishda nimalarga e'tibor berish, YETTB ning mavjud strategiyalaridan nimalarni olish mumkinligi va "Uglerod neytralligiga erishish" strategiysasida olinishi mumkin bo'lgan takliflarning potensial iqtisodiy samaradorligi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, tadqiqotda empirik va nazariy tahlildan iborat aralash yondashuv qo'llaniladi. Bunday tahlilda o'zgaruvchilar o'rtasidagi regression yoki korrelyatsion bog'liqliklar aniqlanmaydi yoki oldinga surilgan gipoteza tekshirilmaydi balki, to'plangan ma'lumotlarni deskriptiv tahlil qilishdan foydalanib tadqiqot savoliga javob qidiriladi. Tadqiqotning savollari O'zbekistonda qabul qilinishi kutilayotgan strategiyalar uchun takliflar ishlab chiqishdan iborat bo'lganligi bois, bu takliflardan qanday iqtisodiy samara kutilishi ham nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiqot savollariga javob qidirishda ikkilamchi ma'lumotlardan foydalaniladi. Bunday ma'lumotlar YETTB va xalqaro moliya institutlarining turli manbalari yoki hisobotlaridan olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

YETTB ning GET tashabbusi barqaror rivojlanishni rag'batlantirish va "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun qimmatli saboqlar va tushunchalarni taqdim etadi. YETTB ning GET tashabbusidan o'rganish mumkin bo'lgan quyidagi 6 ta asosiy saboqlarni ko'rib chiqsak:

1. **Integratsiyalashgan yondashuv:** YETTBning GET tashabbusi "yashil" iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash uchun investitsiyalar, siyosiy muloqotlar, salohiyatni oshirish va bilim almashishning integratsiyalashgan yondashuvni taklif qiladi. Ushbu kompleks yondashuv iqlim o'zgarishi, resurslar samaradorligi va barqaror rivojlanishning o'zaro bog'liq muammolarini hal qilishga yordam beradi.
2. **Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik:** YETTB "yashil" loyihalar va bu loyihalarga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordam berish uchun hukumatlar, biznes subyektlari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan faol hamkorlik qiladi. Ushbu hamkorlikdagi yondashuv hamkorlikni rivojlantiradi, yagona konsensusni o'rnatadi va "yashil" o'tish tashabbuslarining samarador-ligini oshiradi.



3. **Innovatsion moliyalashtirish mexanizmlari:** YETTB barqaror loyihalarga xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish uchun “yashil” obligatsiyalar, “yashil” kreditlar va iqlimga chidamlilik fondlari kabi innovatsion moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanadi. Moliyaviy imtiyozlar va risklarni taqsimlash mexanizmlarini taqdim etish orqali YETTB korxonalarni “yashil” amaliyot va texnologiyalarni qabul qilishga undaydi.
4. **Texnik yordam va salohiyatni oshirish:** YETTB mahalliy hamkorlarga “yashil” moliya, barqaror energiya, resurslar samaradorligi va atrof-muhitni boshqarish bo'yicha tajribani rivojlantirishga yordam berish uchun texnik yordam, salohiyatni oshirish dasturlari va bilim almashish tadbirlarini taklif qiladi. Ushbu qo'llab-quvvatlash manfaatdor tomonlarning “yashil” loyihalarni samarali amalga oshirish imkoniyatlarini oshiradi.
5. **Monitoring va baholash:** YETTB o'zining “yashil” investitsiyalari va tashabbuslarining ta'sirini kuza-tish uchun mustahkam monitoring va baholash tizimini qo'llaydi. Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini o'lchash, natijalarni baholash va muntazam tahlillarni o'tkazish orqali YETTB “yashil” iqtisodiyotga o'tish bo'yicha sa'y-harakatlarida mas'uliyat, shaffoflik va doimiy yaxshilanishni ta'minlaydi.
6. **Bilim almashish va ilg'or tajribalar:** YETTB “yashil” iqtisodiyotga o'tishda ishtirok etayotgan mam-lakatlar, institutlar va hamkorlar o'rtasida bilim, ilg'or tajriba va o'rganilgan saboq almashishga yordam beradi. Fikr va tajriba almashish orqali YETTB innovatsiyalar, muvaffaqiyatli modellarni takrorlash va barqaror rivojlanishda transchegaraviy hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

YETTBning GET tashabbusidan olingan ushbu saboqlarni o'rganish va qo'llash orqali O'zbekistondagi siyosatchilar, biznes vakillari va boshqa manfaatdor tomonlar barqaror rivojlanishga o'tishda ko'maklashish, iqlim o'zgarishiga nisbatan chidamlilikni oshirish va “yashil” iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish bo'yicha o'z sa'y-harakatlarini amalga oshirishlari mumkin.

O'zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga batamom o'tishni ta'minlash uchun “nol uglerod” strategiyasini tuzib chiqish va unga ergashish maqsadga muvofiq. Mualliflar tomonidan, “Koreya Respublikasining 2050-yilgacha uglerod neytralligi strategiyasi” tajribalaridan kelib qichib, 2050–2060-yilgacha O'zbekiston Respublikasida uglerod neytralligiga erishish strategiyasini tuzish va energetika, transport va qurilish sektorlarida uglerod ney-tralligiga erishishi yuzasidan qo'yidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Qayta tiklanadigan energiyaning o'zgaruvchanlik va uzilishlari bilan bog'liq muammolarni hal qilish maq-sadida energiya talabi va ta'minotini aniq prognozlash tizimini ishlab chiqish, kelajakdagi innovatsion texnologiyalarni, masalan, ishonchli energiya ta'minoti uchun energiyani saqlash tizimini yaratishi maq-sadida kengaytirilgan yordamni ta'minlash uchun ma'lumot to'plash, ma'lumotlarni tahlil qilish, modelni ishlab chiqish(sun'iy intellektlardan foydalanib) va faktorlarning integratsiyasi mexanizmlaridan foydal-anish taklif qilindi. Shamol va quyosh kabi qayta tiklanuvchan energiya manbalarini tarmoqqa samarali integratsiya qilish uchun aniq prognozlash juda muhimdir. Bu energiyaga bo'lgan talabning o'zgarish-larini oldindan ko'rishga yordam beradi va resurslarni zaxiralash yoki muvozanatlashni rejalashtirishga yordam beradi.
- **Iqtisodiy samaradorligi.** Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya agentligi tadqiqotlariga muvofiq ^[5], energiya talabi va ta'minotini aniq prognozlash tizimi mavjud quvvatlardan foydalanish samaradorligini oshiradi. “O'zbekiston–2030” strategiyasida 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt ga yetkazish maqsadini va hozirgi kundagi 1 kVt-soat elektr energiyasi tannarxi ^[6] 1000 so'm (yoki 7,9 sent) ekanligini hisobga olib, energiya talabi va ta'minotini aniq prognozlash tizimi yordamida mavjud quvvatlardan foydalanish samaradorligining 1 foizga oshishi natijasidagi yuzaga keladigan ikti-sodiy samaradorlikni hisoblasak (1).

$$IS = N \times t_{sutka} \times t_{yil} \times \Delta \theta \times C (1)$$

Bu yerda:

IS – foydali ish koeffitsiyentning o'zgarishi natijasida aniqlanadigan iqtisodiy samaradorlik;

N –qayta tiklanuvchi energiya manbalarining quvvati (2030 yilga kelib O'zbekistonda erishilishi maqsad qilingan N=);

t_{sutka} – mavjud quvvatga ega qayta tiklanuvchi energiya manbalarining sutka davomida ishlash soati (ish-laydi deb faraz qilingan);

t_{yil} – 365 kun, 1 yil davomiyligi;



$\Delta\delta$ – mavjud quvvatlardan foydalanish samaradorligining o'zgarishi yoki foydali ish koeffitsiyentning o'zgarishi (ko'rilayotgan masalada foydali ish koeffitsiyentning 1 foizga o'zgarishi natijasidagi iqtisodiy samaradorlik aniqlanmoqda).

C – 1 kVt-soat energiyaning tannarxi (2024-yil uchun AQSH dollari qiymati olingan bo'lib, 2030-yildagi tannarxni hisoblashda aynan shu qiymat olingan, inflyatsiya hisobga olinmagan)

$$IS = 25 \times 10^6 \text{ kVt} \times 14 \text{ soat} \times 365 \text{ kun} \times 0,01 \times 0,079 \approx 100,92 \times 10^6$$

Demak, 2030 yilga kelib energiya talabi va ta'minotini aniq prognozlash tizimi yordamida mavjud quvvatlardan foydalanish samaradorligining 1 foizga oshishi yiliga taxminan 101 mln AQSH dollari miqdorida foyda keltiradi (inflyatsiya hisobga olinmaganda).

2. Qurilish sohasida energiya samaradorligini oshirish, sohani kam uglerodli energiya bilan ta'minlash, qazib olinadigan energiyadan foydalanishni minimallashtirish maqsadida "yashil" soliqliq imtiyozlari va kuchli qurilish standartlaridan foydalanish, jumladan, 2028-yildan boshlab barcha yangi jamoat binolari, 2035-yildan boshlab esa barcha yangi davlat va xususiy binolari nol energiya talab qiladigan qurilish standartlariga bo'ysundirish. 2028-yildan oldin qurilgan binolarga, agar ular "yashil" rekonstruksiya qilish bo'yicha yechimlarni qabul qilsalar, soliqlarni kamaytirish va kredit foizlari uchun grantlar kabi hukumat imtiyozlariga ega bo'ladilar.

- **Iqtisodiy samaradorlik.** Xalqaro energetika agentligining 2050-yilga qadar "Nol netto uglerod" ssenariysida binolarni "nol uglerod" standartiga o'tkazish natijasida rivojlanayotgan mamlakatlarda 2030-yilga kelib dekorbanizatsiyalash 2 % ga yetishi prognoz qilingan. 2019-yilda dunyodagi o'rtacha Qurilish sohasidagi issiqxona gazlari emissiyasi jami emissiyaning 21 foizini tashkil qilishini hisobga olib ^[7] (O'zbekiston uchun ma'lumotlar ochiq manbalarda mavjud emas), sohadagi yillik 2 % qisqarish jami emissiyadagi 0.42 % issiqxona gazlaridagi qisqarishga olib kelinishini ko'rish mumkin. Ko'rilayotgan yilda O'zbekistonda issiqxona gazlari emissiyasi 190 mln tonna CO₂ ekv bo'lganidan ^[8], 0.42 % issiqxona gazlaridagi qisqarish umumiy 798 ming tonna CO₂ ekv issiqxona gazlari qisqarishiga sabab bo'lishi mumkin edi. 2023-yilda uglerod kreditlari har bir tonna CO₂ ekv issiqxona gazlari emissiyasi uchun 40–80-dollar atrofida baholangan ^[9]. Demak, yuqoridagi shartlar bajarilganida, qurilish sohasida issiqxona gazlaridagi 2 % qisqarish yiliga o'rtacha 32-64 million AQSH dollari miqdorida foyda olib kelishi mumkin.

Transport sohasida uglerod chiqindilarining minimallashtirishi uchun transport vositasidan almashib foydalanish (shared mobility) amaliyotini joriy etish/kengaytirish, trafiklarni prognozlash va aqlli transport tizimlarini yaratish, avtonom transport vositalaridan tijorat maqsadlarida foydalanishni rag'batlantirish, temir yo'l transportiga modal o'tishni rag'batlantirish orqali 2050–2060-yilga kelib sohada uglerod neytralligiga erishish mumkin.

Iqtisodiy samaradorlik. Yuqorida ko'rilgan misoldagi (qurilish sohasidagi) nazariy gipotezalarga asoslanib, transport sohasidagi 1% issiqxona gazlaridagi qisqartirish natijasida qancha iqtisodiy samaradorlikka erishilishini hisoblasak. Dunyo bo'yicha transport sektoriga jami issiqxona gazlari emissiyasining chorak qismi to'g'ri keladi ^[10], ammo O'zbekiston uchun bunday statistika ochiq manbalarda mavjud emasligi sababli, O'zbekistonda ham transport sektori jami issiqxona gazlarining 25% ni emissiya qiladi deb faraz qilsak (aslida bundan ancha kam bo'lishi mumkin), sektordagi 1% issiqxona gazlaridagi qisqartirish yiliga taxminan 19–38-million AQSH dollari miqdorida foyda olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi hisob-kitoblarning ayrim qismlari nazariy gipotezalarga asoslangan bo'lib, kelgusida, ishonchli ma'lumotlar asosida aniq hisob-kitoblarga tayaniladigan tadqiqot olib boriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy o'sishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarda atrof-muhitning yaxlitligi va ijtimoiy tenglikka ustuvor ahamiyat berish zarurligi YETTB amalga oshirayotgan "Yashil iqtisodiyotga o'tish" tashabbusining asosiy xulosalaridan hisoblanib, aynan qaysi jihatlari O'zbekiston uchun mos kelishi tadqiqotda keltirib o'tildi. Loyihalarning atrof-muhitga ta'sirini baholash, resurslar samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash va qayta tiklanuvchi energiya yechimlarini ilgari surish orqali "Yashil iqtisodiyotga o'tish" strategiyasi past uglerodli, resurslarni tejaydigan barqaror iqtisod yo'nalishini belgilaydi. Bundan tashqari, "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va "Uglerod neytralligiga erishish" strategiyalarida ijtimoiy, iqtisodiy o'lchovlarning o'zaro bog'liqligi va inklyuziv iqtisodiy o'sishda jamiyatning o'rni beqiyos ekanligini ko'rish mumkin. Shuningdek, tadqiqotda "yashil" iqtisodiyotga o'tishda yangi "yashil" ish o'rinlarini yaratish, resurslardan samarali foydalanish va jamiyatning yashash darajasini yaxshilash orqali ijtimoiy muammolarning hal qilinishi maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Around \$1.70 is now invested in clean energy for every \$1 invested in fossil fuels. is that enough to get us to net zero? World Economic Forum. Available from: <https://www.weforum.org/agenda/2023/07/renewable-energy-investment-slowng/> (Accessed: 16 February 2024).
2. Water: An accelerator for Green, inclusive, and resilient growth. World Bank Blogs. Available from: <https://blogs.worldbank.org/en/water/water-accelerator-green-inclusive-and-resilient-growth> (Accessed: 06 February 2024).
3. Green Economy Transition Approach 2021-2025. Available from: <https://www.ebrd.com/documents/comms-and-bis/get-20212025.pdf> (Accessed: 06 March 2024).
4. Climate change and sustainable energy – EBRD. Available from: <https://www.ebrd.com/downloads/research/sustain/sr10ed.pdf> (Accessed: 06 March 2024).
5. Advanced forecasting of variable renewable power ... Available from: https://www.irena.org/-/media/Files/IRENA/Agency/Publication/2020/Jul/IRENA_Advanced_weather_forecasting_2020.pdf (Accessed: 13 April 2024).
6. "Gazeta.uz" (2024) Elektrning tannarxi qariyb 1000 so'm, Tabiiy Gazniki Esa Qariyb 2000 so'mni Tashkil Qiladi – iqtisodiyot vazirligi, Gazeta.uz. Available from: <https://www.gazeta.uz/oz/2024/04/16/costs/> (Accessed: 13 April 2024).
7. Chapter 9: Buildings. IPCC Intergovernmental Panel on Climate Change. Available from: <https://www.ipcc.ch/report/ar6/wg3/chapter/chapter-9/> (Accessed: 14 April 2024).
8. Total greenhouse gas emissions (kt of CO2 equivalent) – Uzbekistan. World Bank Open Data. Available from: <https://data.worldbank.org/indicator/EN.ATM.GHGT.KT.CE?locations=UZ> (Accessed: 14 April 2024).
9. Ho, D. (2023) Creating carbon credits: Is it profitable?, Terrapass. Available from: <https://terrapass.com/blog/creating-carbon-credits-is-it-profitable/> (Accessed: 11 April 2024).
10. EPA. Available from: <https://www.epa.gov/greenvehicles/fast-facts-transportation-greenhouse-gas-emissions> (Accessed: 2 April 2024).

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.